

**Boymurodov A.X., Allamova Sh.Sh.**

# **WEB TEXNOLOGIYALARI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDOGOGIKA UNIVERSITETI**

Boymurodov A.X., Allamova Sh.Sh.

## **WEB TEXNOLOGIYALARI**

O'quv qo'llanma

Chirchiq-2023

UO'K 004.8;004.9  
KBK 32.973.26-018.2  
B-80

**Boymurodov A.X., Allamova Sh.Sh.** / Web texnologiyalari / O'quv qo'llanma – Toshkent «City of book», 2023. - 224 bet.

O'quv qo'llanma web texnologiyalari fanining asosiy tushunchalari, html5 xususiyatlari, htmlda matnlar, ro'yxatlar va jadvallar bilan ishlovchi teglar va atributlar, multimedia ob'ektlari va gipermatnli hujjatlar, shakllar, ularning vazifalari va turlari, html elementlariga ishlov berish uchun CSSga ulanish usullari, selektor turlari, css da matnlar, rasm va xavolalarga ishlov berish, cssda ro'yxatlar, jadvallar va shakllarga ishlov berish, php asoslari, ma'lumotlar bazasi va sql so'rovlari bilan ishlash va web saytlarni yaratishda cms texnologiyasidan foydalanish ko'nikmalarini hosil qilishga qaratilgan.

Учебное пособие охватывает основные понятия веб-технологий, возможности html5, теги и атрибуты работы с текстами, списки и таблицы в html, мультимедийные объекты и гипертекстовые документы, формы, их функции и типы, методы подключения к CSS для обработки html-элементов, селектор типы, направлен на формирование навыков обработки текстов, изображений и ссылок в css, обработки списков, таблиц и форм в css, работы с основами php, работы с базами данных и sql-запросами и использования технологии cms при создании веб-сайтов.

The training manual includes the basic concepts of web technologies, html5 features, tags and attributes for working with texts, lists and tables in html, multimedia objects and hypertext documents, forms, their functions and types, methods for connecting to CSS for processing html elements, a type selector, is aimed at developing skills in processing texts, images and links in css, processing lists, tables and forms in css, working with the basics of php, working with databases and sql queries and using cms technology when creating websites.

**Taqritzchilar:** p.f.f.d. (phd), CHDPU, Xurramov A.

t.f.d., TATU, **Beknazarova S.S.**

ISBN 978-9910-751-38-7

© Boymurodov A.X. va b., 2023 y.

© «City of book», 2023 y.

## KIRISH

Ayni vaqtda axborot texnologiyalari jadal suratlar bilan rivojlanmoqda va inson faoliyatining deyarli barcha sohalariga kirib bormoqda. Internet zamonaviy insonning kundalik hayotining ajralmas qismiga aylandi. Internet rivojlanib borayapti. Bu esa ko'p odamlar o'z hayot tarzini tubdan o'zgartirib yuborishiga sabab bo'lmoqda. Hozirgi kunda dunyoning qariyb 3/2 qismi bu tarmoqdan foylanmoqda va bu ko'rsatkich kundan-kunga o'sib borayapti. Internet tufayli hayotning barcha sohalarida deyarli cheksiz imkoniyatlar mavjud. Bugun axborotlarni elektron ko'rinishda saqlashni va jamlashni tashkil qilish unchalik murakkab ish emas. Xatto Internet texnologiyalarini qo'llab yer sharining ixtiyoriy nuqtasidagi elektron arxivdan foydalanishni tashkil qilish mumkin.

Axborot texnologiyalarida web texnologiyalar vositalari Web-sahifa va ma'lumotlar bazasi, Web-interfeyslarni dasturlash uchun PHP vositalarini amalga oshirish eng dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Ushbu o'quv qo'llanma web ilovalarni yaratishda foydalaniladigan asosiy va zamonaviy dasturlash tillari, ularning tuzilishi va ulardan foydalanish metodlari, har bir dasturning afzalligi va kamchiligi, rivojlanish tendensiyasi, istiqbolli hamda respublikamizdagi bu borada olib borilayotgan ishlar va olinayotgan natijalar web ilovalarni yaratish sohasida foydalaniladigan dasturlash tillari istiqboliga ta'siri masalasini qamraydi.

Ushbu o'quv qo'llanmaning maqsadi har bir mutaxassis o'z sohasida qo'llashi lozim bo'lgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib, turli xil saytlar yaratish va unga ishlov berish imkoniyatlari haqidagi bilimlarga ega bo'lishi va ulardan foydalanish uchun ko'nikma va malakalarni shakllantirish va rivojlantirishdan iborat.

"Web texnologiyalari" fanidan o'quv qo'llanma bakalaviat ta'lim yo'nalishlarining 5110100 - Matematika va informatika ta'lim yo'nalishining 3-bosqich talabalari uchun mo'ljallangan.

Mazkur o'quv qo'llanmada fan dasturida keltirilgan barcha mavzularning uzviy ketma-ketlikdagi batafsil bayoni, o'quv kursi

bo'yicha test savollari, qisqartmalar, atamalar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatini o'z ichiga oladi.

O'quv qo'llanma 13 ta bobdan iborat bo'lib, har bir bobda mavzular misollar bilan yoritib berilgan va har bir bob so'ngida mavzuga doir nazorat savollari berilgan.


Mazkur o'quv qo'llanmada talabalarga HTML, HTML5 gipermatn tili asoslari, CSS, CSS3 stillar majmuasi, web-sahifa va ma'lumotlar bazasi Mysql va php dasturlash tillarini o'rganishda yordamchi qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu o'quv qo'llanmani yaratishda ayrim xato va kamchiliklar bo'lishi mumkin, bu kamchiliklarni bartaraf etishda o'z takliflari bilan o'rtoqlashgan o'quvchilarga minnaddorchilik bildiramiz. Barcha fikr va takliflarni mamnuniyat bilan qabul qilamiz.

## I-BOB. WEB TEXNOLOGIYALAR FANIGA KIRISH. ASOSIY TUSHUNCHALAR. WWW RIVOJLANISH BOSQICHLARI

### 1.1. Web-sahifa, Web-sayt, Web-server tushunchalari

World Wide Web (WWW, Butun dunyo o'rgimchak to'ri) – bu mijoz-server texnologiyasi asosida tashkil etilgan, keng tarqalgan Internet xizmatidir. WWW xizmati gipermatn tushunchasi, HTTP protokoli va HTML tiliga asoslangan.



1.1-rasm. Web xizmat ko'rsatish

Biz Internet tarmog'idagi Web-sahifalarni ko'rishimiz uchun WWW (World Wide Web) deb ataluvchi Internet xizmatdan foydalanamiz.

**Web-sahifa** (inglizcha **Web page**)– web-brauzer yordamida kirish mumkin bo'lgan World Wide Web hujjati yoki axborot resursi.

Web-sahifalar odatda HTML yoki XHTML belgilash tillarida yoziladi va boshqa sahifalarga tezda o'tish uchun giperhavolalarni o'z ichiga olishi mumkin.

Web-sahifadagi ma'lumotlar turli shakllarda taqdim etilishi mumkin:

- Matn;
- statik va animatsion grafiklar;
- audio;
- video;

➤ appletlar.

Web-sahifaning axborot tarkibi odatda kontent deb ataladi.

Umumiy mavzu, dizayn va havolalarga ega bo'lgan va odatda bitta web-serverda joylashgan bir nechta web-sahifalar web-saytni tashkil qiladi.

**Sayt** (inglizcha website: web – "tarmoq" va site – "joy", so'zmaso'z "tarmoqdagi joy") – bitta manzil (domen nomi yoki IP manzil) ostida birlashtirilgan shaxsiy yoki tashkilotning kompyuter tarmog'idagi elektron hujjatlari (fayllari) to'plami. Odatda, sayt Internet tarmog'ida joylashgan deb taxmin qilinadi.

**Web-server** – bu mijozlardan, odatda web-brauzerlardan HTTP so'rovlarini qabul qiladigan va odatda HTML sahifasi, rasm, fayl, media oqimi yoki boshqa ma'lumotlar bilan birga HTTP javoblarini chiqaradigan server. Web-serverlar World Wide Web tarmog'ining asosidir. Web-server – tarmoqqa ulangan kompyuter yoki undagi dastur hisoblanib, umumiy resurslarni mijozga taqdim etish yoki ularni boshqarish vazifalarini bajaradi. Web-serverlar ma'lumotlar bazalari va multimediyali ma'lumotlarni bir-biriga moslashtiradi. Web-serverda Web-sahifa va Web-saytlar saqlanadi. Web-server deganda web-server funksiyalarini bajaradigan dasturiy ta'minot ham, ushbu dastur ishlaydigan kompyuterning o'zi ham tushuniladi.

Web-saytlarni saqlash uchun apparat serverlari web-serverlar deb ataladi. Saqlash xizmatining o'zi hosting deb ataladi.

**Hosting** (ingl. "web-hosting") – Internet hosting xizmatining bir turi bo'lib, jismoniy va yuridik shaxslarga o'zlarining web-sahifalarini internetga uzluksiz ulangan web-serverlarga joylashtirish xizmatini nazarda tutadi. Xosting, shuningdek, mijoz uskunasi provayder hududida joylashtirish, uning yuqori o'tkazuvchanlikdagi aloqa kanallariga ulanishini ta'minlash xizmati (kolokatsiya) deb ataladi. Saytni Internetga joylashtirish uchun birinchi navbatda unga joy kerak. Web-sahifalarni Internet provayderi serverida joylashtirish va qo'llab-quvvatlash hosting deb ataladi. Joy beruvchi kompaniya esa hoster deyiladi.

**Domen nomi** – foydalanuvchi brauzerning manzil maydonida yozadigan belgilar jamlanmasi. Shuni takidlash kerakki, brauzerning